

## LIBOS DIZAYNIDA RANGLAR ORQALI VIZUAL KOMMUNIKATSIYA

Usanova Gulshodaxon Ibroximjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali.

Yusupov Dilshodbek Solijon o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19599240>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada ranglarning inson hayotidagi psixologik, fiziologik va estetik ahamiyati hamda ularning libos dizayni va moda sanoatidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ranglarning inson ruhiyati va xulq-atvoriga ta'siri, zamonaviy moda tendensiyalaridagi roli va kiyim kompozitsiyasidagi funksional vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** rang, moda, libos dizayni, rang psixologiyasi, estetik idrok, kompozitsiya, vizual kommunikatsiya.

### Kirish

Zamonaviy moda industriyasida ranglar libos dizaynining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Rang nafaqat estetik bezak elementi, balki insonning psixologik holati, ijtimoiy xulq-atvori va xarid qarorlariga ta'sir etuvchi muhim omildir. Bugungi kunda dizaynerlar tomonidan ranglardan foydalanish jarayoni ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi, chunki ranglar orqali muayyan obraz, kayfiyat va kommunikativ signal shakllantiriladi.

1-rasm. Ranglar libosni mukammal qiladi

Shu nuqtai nazardan ranglarning inson hayotidagi o'rni va ularning moda dizaynidagi ahamiyatini tizimli o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.



Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy baholash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Rang psixologiyasi, dizayn nazariyasi va moda industriyasiga oid ilmiy manbalar o'rganildi hamda ularning asosida ranglarning inson organizmiga va ruhiyatiga ta'siri aniqlashtirildi. Shuningdek, zamonaviy moda kolleksiyalarida qo'llanilayotgan rang yechimlari va ularning iste'molchi xulqiga ta'siri qiyosiy tahlil qilindi, 1-rasm. Tadqiqot jarayonida ranglarning funksional va estetik xususiyatlari integratsion yondashuv asosida baholandi.

2-rasm. Issiq va sovuq ranglar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ranglar inson psixologiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Iliq ranglar qizil, sariq va to'q sariq ranglar insonda faollik, energiya va diqqatni oshiradi, shu sababli ular sport va reklama kiyimlarida keng qo'llaniladi. Sovuq ranglar ko'k, yashil va binafsha ranglar tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lib, kundalik va dam olish kiyimlarida ustunlik qiladi.



Fiziologik jihatdan ranglarning organizmga ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Qizil rang yurak urish tezligini oshirishi mumkin, ko'k rang esa aksincha, uni pasaytiradi. Yashil rang ko'z uchun qulay bo'lib, uzoq muddatli vizual faoliyatda charchoqni kamaytiradi. Shu asosda ranglardan foydalanish nafaqat estetik, balki funksional samaradorlikni ham ta'minlaydi.

Moda sanoatida ranglar mahsulotning estetik jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ranglar uyg'unligi, kontrast va kompozitsiya orqali dizaynerlar iste'molchida muayyan hissiy taassurot uyg'otadi. Shu bilan birga, ranglar brend identifikatsiyasini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida ranglarning funksional imkoniyatlari kengaymoqda. Termoxromik va fotoaktiv materiallar yordamida rang o'zgaruvchi kiyimlar ishlab chiqilmoqda, bu esa smart kiyimlar dizaynida yangi yo'nalishlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday innovatsiyalar liboslarning nafaqat estetik, balki amaliy qiymatini ham oshiradi.



Bundan tashqari, ranglarning madaniy va ijtimoiy talqini ham muhim omil hisoblanadi.

Turli jamiyatlarda ranglar turlicha ma'no kasb etib, ular orqali ijtimoiy va madaniy axborot uzatiladi. Bu holat moda dizaynida rang tanlash jarayonida milliy va madaniy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

#### **Xulosa**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ranglar inson hayotida ko'p qirrali ahamiyatga ega bo'lib, ular psixologik, fiziologik va ijtimoiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Libos dizaynida ranglardan ilmiy asosda foydalanish dizayn samaradorligini oshirish, iste'molchi ehtiyojlarini qondirish va estetik mukammallikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, zamonaviy moda sanoatida ranglarni chuqur o'rganish, ularni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish va amaliyotga joriy etish istiqbolli ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yusupov, Dilshodbek Solijon Ogli. "The stages of creation smart clothing and electronic garments." *Science and Education* 2.4 (2021): 163-165.
2. Jiang, Q., Chen, L.-C., & Zhang, J. Perception and Preference Analysis of Fashion Colors: Solid Color Shirts. *Sustainability*, 2019, 11(8), 2405. DOI: 10.3390/su11082405.
3. Sidhu, N., Qualter, C., Higgs, E., & Guo, K. What colour should I wear? How clothing colour affects women's judgement of other women's body attractiveness and body size. *Acta Psychologica*, 2021, 218, 103338. DOI: 10.1016/j.actpsy.2021.103338.
4. Ji, Z., Huang, W.-H., & Lin, M. Design Mode Innovation of Local Color Cultures: A Case Study of the Traditional Female Costume of Yi Nationality. *Designs*, 2020, 4(4), 56. DOI: 10.3390/designs4040056.